

О‘ЗBEK MILLIY HUNARMANCHILIGIDA USTA-SHOGIRD MUNOSABATLARINING LOKAL XUSIYATLARI

Ichki ishlar vazirligi Jizzax akademik litseyi
“Huquqiy va ijtimoiy-gumanitar fanlar” kafedrası
tarix fani o‘qituvchisi N.A.Bazarbayeva

Ichki ishlar vazirligi Jizzax akademik litseyi
“Huquqiy va ijtimoiy-gumanitar fanlar” kafedrası
tarix fani o‘qituvchisi U.U.To‘ychiyev

Annotatsiya: Ushbu maqolada an‘anaviy hunarmandchilikda usta-shogird munosabatlar va undagi kasblarning mintaqamizda joylashgan vohalarda nomlarining etnik xususiyatlari aks ettirilgan hamda har bir hududning an‘anaviy hunarmandchilikda lokal xususiyatlari bayon etilgan.

Kalit so‘zlar: Hunarmandchilik, sex, risola, kasaba, taqiya, furush, xalfa, shogird.

Аннотация: В этой статье отражены этнические особенности взаимоотношений мастера и ученика в традиционном ремесле и названия профессий в оазисах, расположенных в нашем регионе, а также описаны локальные особенности каждого региона в традиционном ремесле.

Ключевые слова: Ремесло, секс, брошюра, касаба, такия, фуруш, халфа, ученик.

Abstract: This article reflects the ethnic features of the relationship between the master and the student in the traditional craft and the names of professions in the oases located in our region, as well as describes the local features of each region in the traditional craft.

Keywords: Craft, sex, brochure, kasaba, such, furush, halfa, student.

Qadimgi sharq mamlakatlarida qadimdan hunarmandchilikda birlashma, sex¹ va artellar mavjud bo‘lib, ular diniy, iqtisodiy, huquqiy va kasbiy tomondan tartibga

¹ Sex – (nem. tsex) feodal jamiyatli shaharlarda mayda iqtisodiy mustaqil ishlab chiqaruvchilar hisoblangan hunarmandchilik birlashmasi. Tsex birlashmalari SSSRda 1917 yildan boshlab tugatilgan.

solinib turiladigan maxsus hujjat – *risolalariga*² ega bo‘lishgan. Risolalarda hunarmandchilikning turli sohalariga oid axloqiy, huquqiy va ijtimoiy normalar shariat qonunlariga asoslanib bayon etilgan. Shuningdek, hunarmandchilikning texnologik jarayonlari, mahsulot turlari va sifati, mehnat qurollari va sohaga oid urf-odat va marosimlar keng yoritilgan. Bundan tashqari, risolalardagi rivoyat va ibratli matnlardan shogirdlarni tarbiyalash, ustoz-shogird munosabatlarini tartibga solish, jamoa munosabatlari normalarini aniqlash maqsadida ham foydalanilgan.

Har bir soha hunarmandlari o‘zining muayyan ijtimoiy tashkilot (birlashma, uyushma)lariga ega bo‘lgan. Hunarmandchilik uyushmalari mahalliy aholi orasida “*kasaba*”³ deb yuritilib, o‘ziga xos ichki boshqaruv organi sifatida o‘rin tutgan. Tarixiy manbalarining guvohlik berishicha, Markaziy Osiyoda bunday hunarmandchilik uyushmalari X asrlardayoq mavjud bo‘lgan. Uyushmalarining paydo bo‘lishiga yirik hunarmand savdogarlar sabab bo‘lgan. Ular chetdan raqobatchi paydo bo‘lishini hojlamaganliklari uchun usta-hunarmandlarga bosh bo‘lib, mahsulot ishlab chiqarganlar. Yuqori malakali yollanma ustalar taqiyada emas, bosh ustaning uyida yashaganlar. Rossiya istilosidan keyin taqiyalar keraksiz an’analar sifatida qattiq qoralanib, ularning soni ancha qisqarib ketgan.

Hunarmandchilik uyushmalari *bobo* (kulolchilik, to‘qimachilik, nonvoychilik va b.), *oqsoqol* yoki *g‘olib* (temirchilik, duradgorlik, ko‘nchilik), *ustakor* – ustaxona egasi va uning farzandlari, qarindosh-urug‘lari, *xalfa*⁴ va *shogird*⁵lardan iborat bo‘lgan.

² *Risola* arabcha, “xat”, “nozil etilgan”, “targ‘ibot”, “hunarmandchilikka bag‘ishlangan asar ma’nosini anglatadi. Комаров П.А. Несколько слов о рисола // ТВ. 1901, № 45; Гаврилов М. Рисоля сартовских ремесленников. – Ташкент, 1912. – С. 1; Самарканд и Ташкент. – М: “Рисоля”, 1922. – С. 9; O‘sha muallif. О ремесленных цехах Средней Азии и их статусах – рисола // Известия Среднеазиатского музея. – Ташкент, 1928. – Вып. III. – С. 223-241; Сухарева О.А. Рисола как исторический источник // Источниковедение и текстология средневекового Ближнего и Среднего Востока. – М., 1984. – С. 201-215; Андреев М.С. По поводу процесса образования примитивных среднеазиатских древних цехов и цеховых сказаний (рисаля) // Этнография. – 1927. – С. 2, 323-326.

³ *Kasaba* – ega bo‘lmoq, orttirmoq, sotib olmoq, ishlab topmoq ma’nolarini bildiradi. Bundan tsex va kasbning umumiy nomi kosib so‘zi kelib chiqqan.

⁴ *Xalfa* – chetdan kelgan yollanma ishchi. Xalfalar, asosan, shogirdlikdan yuqori darajaga ko‘tarilgan usta hunarmandlar bo‘lib, o‘z ustaxonalariga ega bo‘lmaganligi uchun uyushmada yollanib ishlaganlar (ular ko‘pincha o‘z ustalari qo‘lida mehnat qilib, ish xaqi olishgan). Dala yozuvlari. Jizzax viloyati. Forish tumani. 2024 yil.

⁵ *Shogird* – o‘rganuvchi, xalfa, izdosh. Biror usta, mutaxassis yoki olimdan hunar, kasb, bilim o‘rganayotgan shaxs. Biror kimsaning ishi yoki ta’limotining tarafdori, uni davom ettiruvchi // O‘zbek tilining izohli lug‘ati. – Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2007. – IV-jild. – B. 590.

Markaziy Osiyoda bobo mansabi va hunarmandlarning boshliqlari to'g'risidagi ma'lumotlar Vosifiy (XVI asr) esdaliklarida keltirilgan (Unda Shohruxiyadagi tikuvchi usta Xusrav nomiga bitilgan Movarounnahr faxriy yorlig'i, ya'ni Nishonning tarjima varianti keltirilgan).

XIX asr oxiri – XX boshlarida o'lka hududida mavjud bo'lgan barcha hunarmandchilik birlashmalari asrlar davomida shakllanib kelgan urf-odat va marosimlariga ega bo'lib, hunarmandlar manfaatlari hamda faoliyatini himoya etish bo'lgan. Kulolchilik va to'qimachiligida bobo va oqsoqol lavozimi mavjud bo'lib, ular usta-hunarmandlar orasidan saylangan.

Zargarlarda uyushma boshliqlari *sarkor* deb nomlangan va ular ko'pincha saroy amaldorlari orasidan tayinlangan. Rus ma'murlari bu lavozimni uy hunarmandchiligidagi *dallol* deb atashgan⁶. Shuningdek, bobo mahalliy dehqon va hunarmandlar o'rtasida ham munosabatlar olib borgan. Masalan, to'y, dafn kabi oilaviy marosim va bayramlarni o'tkazish, tashkillashtirish va unda qishloq aholisi ishtirokini ta'minlash uchun boboga maxsus kishi orqali taklifnoma yuborilgan. U to'y egasi nomidan boboga 15–20 tacha odam bilan birga kelishini aytgan. Ta'kidlash joizki, hunarmandchilikka oid an'ana, urf-odat va marosimlarning ko'pchiligi *ajdodlar kulti* (nufuzi) bilan bog'liq bo'lgan.

O'rta Osiyoda korxona boshlig'i *usta* deb yuritilib, uning qo'l ostida bir necha xalfa va shogirdlar kasb-hunar o'rganishgan⁷. Odatda, shogirdlardan yordamchi ishchi kuchi sifatida korxonadan tashqari, uy xo'jaligida ham keng foydalanilgan. Malakali ustalar har kimni ham shogirdlikka olavermas yoki shogirdlikdan xalfalikka ko'tarmas edilar. Masalan, o'sha davrning taniqli xattot yoki naqqosh, zargar va zardo'zlari faqat boy xonadon farzandlarini shogirdlikka olishgan. Shu bois ham hunarmandlar shaharning yuqori tabaqasiga mansub madaniyatli kishilar hisoblangan.

Tadqiqotchilarning *xalfa* atamasiga bergan izohiga qo'shilmagan holda, xalfa – bu shogird emas, balki boshqalardan farqli o'laroq yollanma ishchidir, degan

⁶ Несколько словъ о кустарныхъ промыслахъ в Туркестанъ // ТВ. – 1894, № 41. – С. 152.

⁷ O'zbekiston Respublikasi Ensiklopediya. – Toshkent, 1997. – B. 138.

to'xtamga kelgan. Uning fikricha, xalfa kelishilgan ish haqi evaziga yollanib ishlaydigan ishchidir⁸. Bundan ko'rinib turganidek, xalfa – shogirdlik darajasidan yuqori ko'tarilgan hunarmand bo'lib, ustoz yoki boshqa ustalarga yollanib mehnat qilgan. Agar ularning mustaqil ish boshlashga yetarli mablag'i bo'lsa, do'kon ochib faoliyat ko'rsatgan va ba'zan xalfalar ustalardan qarz olib, qarzdor ham bo'lib qolishgan⁹.

Hahr qanday shogirdlar yillar davomida hunar o'rganib, ma'lum darajaga erishgach, ustoz unga fotiha bergan. O'rgangan hunariga qarab uning qo'liga ish quroli hamda bir marta biror buyumni ishlab chiqarishga yetadigan xom ashyo bilan ta'minlagan. Misol tariqasida Shahrisabz kulollari o'z shogirdlariga sovg'a tariqasida "posira" berishgan¹⁰. Vohada shogirdlar fotiha olgandan keyin ustoz yonida yoki biror-bir ustaxonada kelishuv asosida yollanib ishlagan¹¹. Misgarlar ham shogirdlarini ma'lum darajada kasbga o'rgatgach, fotiha berib, ularga ustaxona ochishga ko'maklashgan yoki birga ishlashlari uchun ruxsat bergan¹².

Ustaxonaga bag'ishlangan marosim *fotiha berish* deb atalib, bunda ustaning shogirdga beradigan duosi ko'zda tutilgan. Fotihani shogird o'z otasidan emas, balki hunar o'rgatgan ustozidan olgan. Fotiha olgan shogird o'z faoliyatini xalfalardek davom ettirgan, ustoz esa unga o'zini tutib ketishi uchun keraklicha yordam bergan.

Keyingi marosim *kamarbandon*, ya'ni belbog' taqish hisoblanadi. Buxoroda bu *miyonbandi* (yoki *kamarbandi*)¹³ va Xorazmda usta maqomining berilishi *kamarbasta* deb ataladi. Xalfa bilan kamarbandonlar orasida deyarli farq bo'lmagan. Yuqoridagi ikki marosim o'tkazilgach, ustozidan ajralib chiqqan shogird o'zi alohida ustaxona ochib, mustaqil ish yuritishi mumkin bo'lgan.

Hunarmandchilikning barcha turlarida hunar otadan bolaga meros qoldirilgan va uni davom ettirmaslik gunoh hisoblangan. Xalq qarashlariga ko'ra, ota hunari davom

⁸ Пешерева Е.М. Из истории цеховых организаций в Средней Азии. ... – С. 34-35.

⁹ O'zR MDA, R-48-jamg'arma, 1-ro'yxat, 233-yig'ma jild, 16-varaq.

¹⁰ Dala yozuvlari. Jizzax viloyati, Baxmal tumani. Oyqor qishlog'I 2024 yil.

¹¹ Пешерева Е.М. О ремесленных организациях Средней Азии в конце XIX – начале XX вв. ... – С. 311-317.

¹² Пешерева Е.М. О ремесленных организациях Средней Азии в конце XIX – начале XX вв. ... – С. 321

¹³ Qilichev R. Buxoro shahrida hunarmandchilik. ... – B. 34.

ettirilmagan uyda pirlarga chiroq yoqilmay qolgan. Shuning uchun o'g'il farzandi bo'lmagan usta qizini eng yaxshi shogirdiga turmushga bergan.

Hunarmandchilikda yana bitta hunar turi mavjud-ki gilam to'qish san'ati. Gilam to'qish dastlab ayollarning uy hunarmandchiligi sifatida mashhur bo'lib, erkaklar bu hunar turi bilan deyarli shug'ullanmaganlar. Gilam to'qish juda murakkab ish bo'lganligi uchun keyinchalik to'quv dastgohlarida erkaklar ham shug'ullanishgan. Tajribali gilamdo'z usta gilam to'qishni yoshlik paytlaridan o'rgana boshlab, 10-15 yilda haqiqiy usta bo'lib yetishgan. Vohada 7-9 yoshdagi qizlar charxda ip yigirishni o'rganib, 11-14 yoshida esa gilam to'qishda ustaga shogird tushgan. Albatta, bu o'ziga xos jarayon hisoblangan. Mazkur yoshda bu shogirdlar iplarni bo'yash ishlarida qatnashmaganlar. Bunga sabab, gilam iplarini bo'yash sirlarini faqatgina tajribali gilamdo'zlarga bilishgan. Xotin-qizlar 20-25 yoshga kirganlarida to'qishni yaxshi o'rganib, 30-35 yoshlarda esa tajribalari ortib va turli nusxadagi gilamlarni to'qiy oladigan ustalarga aylanishganligi Jizzax vohasi gilamchiligi an'analaridan hisoblanadi¹⁴.

V. Razvadovskiyning ma'lumot berishicha, kulolchilikda shogirdlikka olish 17–20 yoshdan boshlangan¹⁵. Fikrimizcha, bu ma'lumot biroz mubolag'ali bo'lib, kulolchilikda bugun ham bola yoshligidan shogirdlikka olinadi. Bu esa kulolchilikda muayyan yosh chegarasini tanlash noo'rin ekanligini ko'rsatadi. Bunday an'analar asrlar davomida hunarmandlarni bir-biriga jipslashtirib kelgan. Bugun O'zbekistonning janubiy hududlarida ko'plab "Ustoz-shogird" maktablarida usta hunarmandlar o'z shogirdlariga hunar sirlarini o'rgatib kelmoqda.

Xulosa qilib aytganda o'zbek milliy hunarmandchiligida ustoz-shogird an'anasi o'zining chuqur tarixiy ildizlari va tajribasiga ega. Ayni paytda bu faoliyat kishilarning foyda olish maqsadida, jamiyatning ma'naviy-axloqiy me'yorlari, amaldagi qonunlari doirasida mahsulotlar ishlab chiqarish, xizmat ko'rsatish borasidagi mustaqil tashabbuskorlik faoliyati sanaladi hamda ushbu tushuncha mustaqillik yillarida

¹⁴ Abduqodirov S.B. Jizzax vohasi gilamdo'zlik an'analari va transformatsiyalar // Monografiya. Toshkent-2023. 43-b.

¹⁵ Развадовский В.К. Исследование гончарного и некоторых других кустарных промыслов в Туркестанском крае // Туркестанское сельское хозяйство. – 1916. – № 7. – С. 641.

tadbirkorlikning bir qismi sifatida iste'molda keng qo'llanilib, kishilar ongida mustahkam o'rin egalladi.

Mintaqamizning turli vohalarida hunarmandchilik sohasida ustoz-shorirdan'analari o'zining lokal xususiyatlariga ega bo'lgan. Usta-shogirdan'analari har bir vohaning urf-odat va an'analari bir-birini takrorlamas jixatlarini o'zida aks ettiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. Комаров П.А. Несколько слов о рисола // ТВ. 1901, № 45; Гаврилов М. Рисоля сартовских ремесленников. – Ташкент, 1912. – С. 1;¹ Несколько слов о кустарных промыслах в Туркестань // ТВ. – 1894, № 41. – С. 152.
2. O'zbekiston Respublikasi Ensiklopediya. – Toshkent, 1997. – B. 138.
3. Пешерева Е.М. Из истории цеховых организаций в Средней Азии. ... – С. 34-35.
4. O'zR MDA, R-48-jamg'arma, 1-ro'xat, 233-yig'ma jild, 16-varaq.
5. Пешерева Е.М. О ремесленных организациях Средней Азии в конце XIX – начале XX вв. ... – С. 311-317-321.
6. Qilichev R. Buxoro shahrida hunarmandchilik. ... – B. 34.
7. Abduqodirov S.B. Jizzax vohasi gilamdo'zlik an'analari va transformatsiyalar // Monografiya. Toshkent-2023. 43-b.
8. Развадовский В.К. Исследование гончарного и некоторых других кустарных промыслов в Туркестанском крае // Туркестанское сельское хозяйство. – 1916. – № 7. – С. 641.
9. Hunarmand uyushmasi joriy arxivi. 17-yig'ma jild. 2008 yil.
10. Жаббаров И., Дресвянская Г. Духи, святые боги Средней Азии. – Ташкент, 1993. – С. 174-179.
11. Пешерева Е.М. Гончарное производство Средней Азии. ... – С. 317-322.
12. Сухарева О.А. Позднефеодальный город Бухара. ... - С. 54.
13. Пешерева Е.М. Гончарное производство Средней Азии. ... – С. 320; Алимов У.А., Мирзаахмедов Д.К. К истории мавзолея Бобои-Порадўз в Бухаре // История материальной культуры Узбекистана. – Ташкент, 1982. – Вып. XVII. – С. 169.

14. Bulatov S. O'zbek xalq amaliy bezak san'ati. – Toshkent: Mehnat, 1991. – B. 321.